

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**



Ro'yhatga olindi: *BE 60310100-SMMA1204*

2025-yil "28" avgust

**SIYOSIY MADANIYAT, MAFKURA VA ANTROPOLOGIYA  
FANINING O‘QUV DASTURI**

**1-KURS**

Bilim sohasi: 300 000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot  
Ta'lim sohasi: 310 000 - Ijtimoiy va xulq-atvorga oid fanlar  
Ta'lim yo'nalishi: 60310100 - Siyosatshunoslik

**Toshkent – 2025**

Fan/modul kodi SMMA1204	O'quv yili 2025-2026	Semestr 2	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy fanlar		Ta'lim turi O'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Siyosiy madaniyat, mafkura va antropologiya	48	72	120
2.	<p align="center"><b>1. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> - siyosiy madaniyat, mafkura va antropologiya tushunchasi, tuzilishi va funksiyasini, siyosiy madaniyat va mafkuraga ta'sir etuvchi hamda siyosiy antropologiya shakillanishida muhim hisoblangan omillarni ko'rib chiqich, talabalarda siyosiy madaniyat, mafkura ijtimoiy hodisa sifatida tizimlashtirilgan ilmiy tasavvurlarni shakillantirish, ularning tarkibiy elementlarni, ichki va tashqi aloqalarni va munosabatlarni aniqlash, turli siyosiy tizimlarda ularning shakillanilishi va o'zaro ta'sirining asosiy tendensiyalarini va qonuniyatlarini aniqlash. Sanoatdan oldingi va post-an'anaviy jamiyatlarda hokimiyat va ijtimoiy nazorat mexanizmlarini va institutlarini hamda antropologik tahlillar asosida an'anaviy boshqaruv mexanizmlarini zamonaviy institutlarga moslashtirish, kiritish va o'zgartirish muammosini o'rganish.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, siyosiy madaniyat, mafkura va antropologiyani o'rganishning uslubiy asoslari, ularning tuzilishi va funksiyalari bilan tanishtirish. Turli mafkuraviy va siyosiy asoslarga ega bo'lgan siyosiy madaniyat modellarni tahlil qilish. Mafkuraviy vaziyatlarni tahlil qilish, demokratik siyosiy madaniyat g'oyalarini shakillantirish yo'llirini aniqlash. Siyosiy antropologiyaning siyosiy fanlardagi o'rni va ahamiyatini tushuntirish hamda talabalarda zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni siyosiy va antropologik nuqtai nazargan anglash malakalarini shakillantirish.</p> <p><b>Xorij tajribasiga muvofiqligi</b> Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda TOPI-300 talik ro'yxatiga kiruvchi University of Oxford ta'lim dasturi tajribasini o'rgangan holda tuzildi. <a href="https://www.ihs.ox.ac.uk/sites/default/files/ihs/documents/media/hs-prelims_handbook_2021v1.1_withcover.pdf">https://www.ihs.ox.ac.uk/sites/default/files/ihs/documents/media/hs-prelims_handbook_2021v1.1_withcover.pdf</a></p> <p align="center"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p>			

### **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

1. "Siyosiy madaniyat, mafkura va antropologiya" fanining predmeti, maqsad va vazifalari (2 soat).
2. Siyosiy madaniyat tipologiyasi va metodlari (2 soat).
3. Siyosiy ong va siyosiy madaniyatning o'zaro munosabatlari (2 soat).
4. Siyosiy madaniyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoi-madaniy determinantlari (2 soat).
5. Siyosiy mafkura hokimiyat munosabatlarini aks ettiruvchi omil sifatida (2 soat).
6. Liberalizm va neoliberalizm. Konservatizm va neokonservatizm (2 soat).
7. Sotsial demokratiya (2 soat).
8. Siyosiy madaniyatning asosiy modellari. Siyosiy madaniyatning milliy va mintaqaviy variantlari, ularning o'ziga xosligi va hususiyatlari (2 soat).
9. Gumanitar fanlar tizimida siyosiy antropologiya. Siyosiy antropologiya fanining predmeti va asosiy muamolari (2 soat).
10. Tengsizlik va hokimiyatning madaniy hamda sotsiologik asoslari (2 soat).
11. Siyosiy liderlik (2 soat).
12. Davlatning kelib chiqishi haqidagi siyosiy antropologiya. Siyosiy antropologiya va zamonaviylik (2 soat).

### **III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

#### **Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. "Siyosiy madaniyat, mafkura va antropologiya" fanining predmeti, maqsad va vazifalari (2 soat).
2. Siyosiy madaniyat tipologiyasi va metodlari (2 soat).
3. Siyosiy ong va siyosiy madaniyatning o'zaro munosabatlari (2 soat).
4. Siyosiy madaniyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoi-madaniy determinantlari (2 soat).
5. Siyosiy mafkura hokimiyat munosabatlarini aks ettiruvchi omil sifatida (2 soat).
6. Liberalizm va neoliberalizm. Konservatizm va neokonservatizm (2 soat).
7. Sotsial demokratiya (2 soat).
8. Siyosiy madaniyatning asosiy modellari. Siyosiy madaniyatning milliy va mintaqaviy variantlari, ularning o'ziga xosligi va hususiyatlari (2 soat).
9. Gumanitar fanlar tizimida siyosiy antropologiya. Siyosiy antropologiya

<p>fanining predmeti va asosiy muamolari (2 soat).</p> <p>10. Tengsizlik va hokimiyatning madaniy hamda sotsiologik asoslari (2 soat).</p> <p>11. Siyosiy liderlik (2 soat).</p> <p>12. Davlatning kelib chiqishi haqidagi siyosiy antropologiya. Siyosiy antropologiya va zamonaviylik (2 soat).</p> <p>Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.</p> <p style="text-align: center;"><b>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</b></p> <p>Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.</p> <p>Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMIS axborot tizimida ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;</li> <li>- seminar mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;</li> <li>- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;</li> <li>- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;</li> <li>- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.</li> </ul> <p><b>Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;</li> <li>- badiiy-ijodiy ishni bajarish;</li> <li>- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;</li> </ul>
---

<ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.president.uz">www.president.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti</li> <li>2. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali</li> <li>3. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi</li> <li>4. <a href="http://www.ziynet.uz">www.ziynet.uz</a> – Oliy va o'rta maxsus vazirligi ta'lim portali</li> </ol>
<p>7. <b>O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</b> Dastur universitet Kengashining 2025-yil 28-avgustdagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan (1-sonli bayonnoma).</p>
<p>8. <b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b> D.Muitov, O'zDJTU siyosiy fanlar kafedrasi professor v.b., siyosiy fanlar nomzodi Sh.K.Agabayev – O'zDJTU, "Siyosiy fanlar" kafedrasi dotsenti, siyosiy fanlar bo'yicha fan doktori (PhD). Sh.A.Axmedova – O'zDJTU "Siyosiy fanlar" kafedrasi o'qituvchi-stajori.</p>
<p>9. <b>Taqrizchilar:</b> A.Utamuradov – O'zZMU, "Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi" kafedrasi professori, f.f.n., professor. S.Jo'rayev – TDSHU, "Sharq mamlakatlari siyosati va xalqaro munosabatlar" kafedrasi professori, siyosiy fanlar doktori.</p>

Xalqaro jurnalistika fakulteti dekani

A.J.Matyakubov

Siyosiy fanlar kafedrasi mudiri

S.Sh.Saidov

Universitet axborot resurs  
markazi direktori

S.Kayumova

	<p><b>2 (qoniqarsiz) baho</b> — talaba seminar mashg'ulotlarida ishtirok etmaydi yoki faol emas; mavzuni tushunmagan, savollarga javob berishda jiddiy qiyinchilikka duch keladi; asosiy tushuncha va atamalarni izohlab bera olmaydi; mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmasi shakllanmagan; topshiriqlarni bajarmagan yoki sifatsiz bajargan bo'ladi.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. S.Sh.Saidov. Siyosatshunoslikka kirish (jadval va chizmalarda): O'quv qo'llanma. - T., 2025. – 136 b. <i>+150</i></li> <li>2. S.Sh.Saidov. Davlat xizmati va personal boshqaruv (Davlat boshqaruvida rag'batlantirish usullari): O'quv qo'llanma. - T., 2024. – 99 b. <i>+150</i></li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –T.:“O'zbekiston”, 2023. B.80.</li> <li>2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston. 2017.</li> <li>3. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1 jild. –T.: O'zbekiston, NMIU. 2017.</li> <li>4. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2 jild. –T.: O'zbekiston, NMIU. 2018.</li> <li>5. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3 jild. –T.: O'zbekiston, NMIU. 2019.</li> <li>6. Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4 jild. –T.: O'zbekiston, NMIU. 2020.</li> <li>7. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: O'zbekiston, NMIU. 2021.</li> <li>8. Javliyev N.B. Huquqning mohiyati: an'anaviy va zamonaviy nazariyalar. O'quv qo'llanma. – T. TDYUI, 2010.</li> <li>9. Islamov Z.M. Teoriya gosudarstva i prava (Chast 1. Teoriya gosudarstva). Uchebnik. –Tashkent: TGYUI, 2013.</li> <li>10. Islamov Z.M. Yurisprudensiya. Teoriya gosudarstva. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012.</li> <li>11. Najimov M.K., Muxitdinov Z.S. Davlat va huquq nazariyasi. O'quv-uslubiy majmua. – T.: TDYUI, 2010.</li> <li>12. Najimov M.K. Norma ijodkorligi. Darslik. –T.: TDYUU, 2018. – 181b.</li> <li>13. Saburov N., Saydullayev SH.A. Davlat va huquq nazariyasi / O'quv qo'llanma. –Toshkent: TDYUI, 2011.</li> <li>14. Saydullayev SH.A. Huquqdagi bo'shliqlar va ularni bartaraf etish yo'llari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYUI, 2011. – 90 b.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari</b></p>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;</li> <li>- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;</li> <li>- ilmiy maqola, tezislarni va ma'ruza tayyorlash;</li> </ul> <p style="text-align: center;">Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Siyosiy madaniyat mazmuni va asosiy xususiyatlari – 2 soat</li> <li>2. Siyosiy madaniyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy determinatlari – 2 soat</li> <li>3. Siyosiy madaniyatning xulq-atvor jihati, shakllari va stereotiplari – 2 soat</li> <li>4. Siyosiy madaniyatning institutsional normalari va an'analari – 2 soat</li> <li>5. Siyosiy mafkura hokimiyat munosabatlarini aks ettiruvchi omil sifatida – 2 soat</li> <li>6. Liberalizm va neoliberalizm – 2 soat</li> <li>7. Konservatizm va neokonservatizm – 2 soat</li> <li>8. Sotsial demokratiya – 2 soat</li> <li>9. Siyosiy madaniyatning asosiy modellari – 2 soat</li> <li>10. Siyosiy madaniyatning milliy va mintaqaviy variantlari, ularning o'ziga xosligi va xususiyatlari – 2 soat</li> <li>11. Gumanitar fanlar tizimida siyosiy antropologiya. Siyosiy antropologiyaning predmeti va asosiy muammolari – 2 soat</li> <li>12. Tengsizlik va hokimiyatning madaniy va sotsiobiologik asoslari – 2 soat</li> <li>13. Siyosiy liderlik – 2 soat</li> <li>14. Davlatning kelib chiqishi haqidagi siyosiy antropologiya – 2 soat</li> <li>15. Sanoatdan oldingi sivilizatsiyalarda hokimiyat va siyosat – 2 soat</li> <li>16. Siyosiy antropologiya va zamonaviylik – 2 soat</li> <li>17. Hokimiyat antropologiyasi tarixi – 2 soat</li> <li>18. Siyosiy madaniyatning diniy jihatlari – 2 soat</li> <li>19. Siyosat va madaniyat o'rtasidagi munosabat – 2 soat</li> <li>20. G'arb siyosiy madaniyati – 2 soat</li> <li>21. Germaniyada siyosiy madaniyat – 2 soat</li> <li>22. Frantsiyada siyosiy madaniyat – 2 soat</li> <li>23. Angliyada siyosiy madaniyat – 2 soat</li> <li>24. Italiyada siyosiy madaniyat – 2 soat</li> <li>25. Yaponiyada siyosiy madaniyat – 2 soat</li> <li>26. Janubiy Koreyada siyosiy madaniyat – 2 soat</li> <li>27. Singapurda siyosiy madaniyat – 2 soat</li> <li>28. Xitoyda siyosiy madaniyat – 2 soat</li> <li>29. Rossiyada siyosiy madaniyat – 2 soat</li> <li>30. AQSHda siyosiy madaniyat – 2 soat</li> </ol>
--	---

	<p>31. Milliy o'z-o'zligini anglash, mohiyati, ziddiyatlar va siyosiy ong bilan bog'liqligi – 2 soat</p> <p>32. Siyosiy madaniyatning demokratik tipining shakllanishi va rivojlanishidagi me'yor va an'analar – 2 soat</p> <p>33. Siyosiy mafkura siyosatshunoslikning tadqiqot ob'ekti sifatida – 2 soat</p> <p>34. Plyuralistik demokratiya liberal ijtimoiy-siyosiy tizim sifatida – asosiy tamoyillar – 2 soat</p> <p>35. Konservatizm paydo bo'lishining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy shart-sharoitlari – 2 soat</p> <p>36. Sotsial-demokratiya g'oyalari sotsializm modellari – 2 soat</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b>  <b>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- "Siyosiy madaniyat, mafkura va antropologiya" fani bo'yicha tizimli bilimlarga ega bo'lishi; fan va ta'lim sohasida ro'y berayotgan hodisalar va jarayonlar haqida, siyosiy madaniyatning mazmuni va shakllari, siyosiy mafkuraning rivojlanish yo'nalishlari, siyosiy antropologiyaning predmeti va bugungi ahvoli hamda istiqbollari xususida tasavvurga ega bo'lishi;</li> <li>- "Siyosiy madaniyat, mafkura va antropologiya" fanining asoslari va dolzarb muammolarini bilishi; siyosiy madaniyatning iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy determinantlarini, mafkuraning hokimiyat munosabatlaridagi rolini, siyosiy antropologiyaning nazariy asoslarini mustaqil tahlil qila olishi; ta'lim sifatini oshirish, siyosiy tafakkur va demokratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirish bo'yicha bilimga ega bo'lishi; zamonaviy ilmiy asoslarda bu bilimlarni hayotiy va kasbiy faoliyatida qo'llay olishi; ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, tahlil qilish va ulardan foydalanish usullariga ega bo'lishi; o'z kasbiy faoliyatida asoslangan mustaqil qarorlar qabul qilishni bilishi va ulardan samarali foydalanishi;</li> <li>- Ta'lim yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi; mustaqil ravishda yangi bilimlarni yaratish, o'z-o'zini takomillashtirish, ilmiy asosda o'z mehnatini tashkil qilish, siyosiy va madaniy jarayonlarni tahlil qilishni bilishi; sog'lom turmush tarzini yuritish zaruriyatida ilmiy tasavvur va ishonchga, shuningdek, ijtimoiy-madaniy va siyosiy muhitda faoliyat yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.</li> </ul>

4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar ( mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq, fan bo'yicha ajratilgan kreditlar talabani ushbu fan doirasida belgilangan nazariy (ma'ruza) va seminar mashg'ulotlarini o'zlashtirish darajasiga qarab beriladi.</p> <p>Talabalarining bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" talablariga muvofiq amalga oshiriladi.</p> <p><b>Baholash mezonlari quyidagicha:</b></p> <p><b>5 (a'lo) baho</b> — talaba seminar mashg'ulotlarida faol ishtirok etadi, mavzularni chuqur tahlil qiladi; savollarga mustaqil fikr yuritib javob beradi; mavzuga oid daliliy misollar keltira oladi va ularni to'g'ri tahlil qiladi; asosli ilmiy xulosalar chiqaradi; tayanch tushuncha va terminlarni aniq izohlay oladi; fikrini izchil, mantiqiy va ravon bayon eta oladi; dolzarb siyosiy masalalar bo'yicha tegishli qarorlar ishlab chiqish ko'nikmasiga ega bo'ladi.</p> <p><b>4 (yaxshi) baho</b> — talaba seminar mashg'ulotlarida faol ishtirok etadi, ammo ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi; mustaqil tahlil olib boradi, lekin fikrlar orasida izchillik yetarli emas; misollar va dalillarni tahlil qiladi, lekin xulosalar to'liq emas; tayanch tushunchalarni izohlashda ba'zida ikkilanishlarga yo'l qo'yadi; umumiy bilimga ega bo'lsa-da, ayrim savollarga javob berishda sustlik seziladi; mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qilishda ba'zan qiyinchilikka duch keladi.</p> <p><b>3 (qoniqarli) baho</b> — talaba seminar mashg'ulotlarida sust ishtirok etadi; tahlil va izohlar yuzasidan sezilarli kamchiliklarga yo'l qo'yadi; ilmiy asoslar va tushunchalarni to'liq anglamaydi; savollarga qisman yoki umumiy javoblar beradi; mavzu yuzasidan bilim yetarli emas; fikrini izchil va ravon ifodalashda qiynaladi.</p>